



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 17-yanvar

18-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 15-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tarixiy obyektlar va turizm rivojlanmagan hududlarda mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 919-son qarori ijrosi haqida”gi 16-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “Tarixiy obyektlar va turizm rivojlanmagan hududlarda mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 919-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 15-yanvardagi 16-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 15-yanvardagi 16-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 919-son qarori bilan: YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarda mehmonxonalar qurish hamda mehmonxona mavjud bo‘lmagan tuman (shahar)larda kichik otellar qurish va ularni jihozlash harajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq; Mehmonxona mavjud bo‘lmagan tuman (shahar)lar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi; belgilanishicha: YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarda toifali (yulduzli) mehmonxonalarni qurish xarajatlarini qoplanishi; mazkur qarorga 2-ilovadagi tuman (shahar)larda kichik otellar qurish va ularni jihozlash xarajatlarning bir qismini qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan bir martalik subsidiya ajratilishi; bunda subsidiya mehmonxonalarning toifasi hamda kichik otellarning xonalar sonidan kelib chiqqan holda, 2025-yil 1-yanvardan 2026-yil 31-dekabrqa qadar bo‘lgan muddatda muvofiqlik sertifikatini berilgan yangi qurilgan (rekonstruksiya qilinmagan) mehmonxonalar va kichik otellar uchun ajratilishi belgilanganligi e‘tiborga olinsin.
3. Tuman hokimining o‘rinbosari (J.Raximov) manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 919-son qarori talablaridan kelib chiqib, ish tashkil qilsin.
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov va tuman hokimining maslahatchisi Sh.Turgunbayevalar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov